

O'QUVCHILARDA MILLIY G'URURNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY
ZARURIYATI VA UNDA FOLKLORDAN FOYDALANISH MASALALARI

Mo'minova Naziraxon

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

O'zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: maqolada xalq og'zaki ijodi namunalariining xalq orasida keng yoyilishining ijtimoiy, ma'naviy sabablari, ahamiyati yoritilgan. Globallashyotgan dunyoda bu jarayoning susayish oqibatlariga to'xtalilib, uning salbiy ta'sirlarini bartaraf etishning pedagogik, metodik yo'llari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: milliy g'urur, shakllantirish, milliy o'zlik, anglash, folklor asarlarining o'rnini, tadbir, ma'naviy meros.

Xalqimiz o'tmishi va ijtimoiy hayoti tasvirlangan yirik epik asarlardan tortib, oddiygina tuyulgan tez aytish-u maqollargacha muayyan bir didaktik maqsad ko'zlangan bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalariining xalqimiz orasida keng yoyilishi farzandlarimiz axloqiy tarbiyasida muhim o'rin tutib kelgan. Biroq, keyingi davrlardagi ijtimoiy muhit, axborot xurujlari, internet tizimining tobora rivojlanib borayotgani yosh avlod kamolotida o'zining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy jihatlari ham ko'rsatmoqda. Global vertual tizimlarning axloqiy tarbiyadagi salbiy jihatlari ularning ommaviy madaniyat ketidan quvish, o'z xatti – harakatlariining oqibatlarini his qilmaslik, yoshlarda mantiq va mulohazadan foydalanmaslikka olib kelmoqda. Bu esa, yoshlarning o'z shaxsiy hayotini rejalashtirish, istiqbolini yaratish uchun maqsadli intilish, ilm olishga ishtiyoq, kasb-hunar egallashga bo'lgan qiziqishlaridan chalg'ishga olib kelayotganligi kuzatilmoqda.

Yangi o'zbek jamiyatida yosh avlod tarbiyasi hayot-mamot masalasi ekanligi kattalar tomonidan ko'p takrorlansa-da, yoshlarimiz ongiga tashqi ta'sir kuchlarining ustunligi ularning tafakkurini shakllanishida o'ziga xos iz qoldirmoqda.

Ayni damda dunyoning aksariyat xalqlari yosh avlod tarbiyasiga jiddiy qarash, ularning kamol topishida ajdodlari ma'naviy merosidan foydalanish, o'z kelajagini farzandlari taqdirida ko'rishni orzu qiladilar. Ayni shu ezgu maqsadli xalqlar yosh avlod tarbiyasini o'zining eng muhim masalalaridan sanaydilar. Yosh avlod tarbiyasida ota-bobolaridan og'zaki shaklda yetib kelgan xalq og'zaki ijodi namunalariining o'rne beqiyos ekanligini keng xalq ommasiga yetkazib kelmoqdalar. Jahon ilm-fanida bu borada yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Madaniy qadriyatlar va yoshlar tafakkurida folklorning o'rne masalalarini tadqiq etgan olim E.S.Markaryan folklor asarlari qahramonlari va ularning xatti-harakatlari yoshlarning tabiatga muhabbat uyg'otishida muhim ahamiyat kasb etishini ilmiy isbotlagan¹⁵. Yoshlar tafakkurining shakllanishida radio, televideniya, telefon kabi ommaviy kommunikatsion texnologiyalarning o'rne va folklor, qadriyatlar to'qnashuvi masalasini V.Ong tadqiqotlarida

¹⁵ Маркарян Э.С. Теория культуры и современная наука :логико-методол. анализ). – Москва: Мысль, 1983. – 284 с.

ham kuzatishimiz mumkin. Ommaviy madaniyat va xalq madaniyati, qadriyatlar, an'analarning mantiqiy qarama-qarshiliklarini belorus folklori misolida tadqiq etgan Ya.I.Grinevich xalq og'zaki ijodi millatning o'zligini anglashi va milliy xususiyatlarni mujassamlashtirganligi bilan muhim ahamiyat kasb etishini o'z tadqiqotlarida ko'rsatib o'tadi¹⁶.

Milliy o'zlikni anglashda folklor asarlarining o'rnini mantiqan ochib berishga qaratilgan tadqiqotlar Markaziy Osiyo olimlarining ishlarida ko'p kuzatiladi. Xususan, taniqli o'zbek folklorshunoslari: T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, M.Jo'raev, D.O'raeva, J.Eshonqulov, Sh.Turdimov, S.Mirzaeva, Sh.Shomusarov, O.Qayumovlarning tadqiqotlari ahamiyatlidir¹⁷. O'zbek folklorshunoslarining turli masalalarda olib borgan tadqiqotlari folklorning yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin egallashi, xalq og'zaki ijodi namunalarida uchrovchi qahramonlar ibrat namunasini o'tashi, xalq ijodi ajdodlarimizning ma'naviy qadriyatlarini keyingi avlodga yetkazuvchi muhim badiiy - estetik vosita ekanligi yakdillik bilan turlicha rakurslarda o'z ifodasini topgan.

Pedagogik yo'nalishda H.Bobomirzaevning "Folklor va tarbiyaning pedagogik asoslari" nomli risolasida esa, folklor namunalarining axloqiy tarbiyani shakllantirishda muhim o'rin tutishi borasida to'xtalib o'tilgan¹⁸.

Kuzatishlarimiz yosh avlodning o'zligini anglashi va uning amalga oshirish jarayonining qay tariqa kechishida xalq og'zaki ijodi namunalari hamda bu masalaning o'zbek folklorshunoslari tadqiqotlarida aks etganligini ko'rsatadi. O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishning ijtimoiy zaruriyati nimalarda, uning shakllantirish uchun nimalar qilishimiz lozimligi bugungi o'zbek pedagogikasining muhim masalalaridan biriga aylanib

¹⁶ Грыневич, Я.І. Беларускія пазаабрадавыя лірычныя песні / Я.І. Грыневич. – Мінск : Беларус. навука, 2018. – 246 с.; Бяседныя песні [Гуказапісы] / склад. Я.І. Грыневич. – Мінск: Traducyja, 2019. – 1 гук. дыск.; Hrynevich, Ya. Worldview of Belarusian folk songs lyrics / Yanina Hrynevich // Folklore. – Vol. 72. – 2018. – pp. 55–84.

¹⁷ Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари.–Тошкент, Фан, 1968.–Б.94-95; Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.128; Жўраев М. Ой олдида бир юлдуз – Тошкент: Фан, 2001. – Б.113 -118; Ўша муаллиф. Остонаси тиллодан.–Тошкент, 2003; Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан, 2001; Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – Б.139 -211.; Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун-дуолари фольклор жанри сифатида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1992. – 2-сон. – Б.31 -34; Ўраева Д. Кинна айтимларининг поэтикасига доир // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 2-китоб. – Тошкент: Фан, 2010.; Эшонқулов Ж.Эпос ва маросим//Миф ва бадий тафаккур.–Тошкент, Фан, 2019.–Б.54.; Турдимов Ш. “Гўрўғли” достонларининг генезиси ва тадрижий боскичлари. Филол.фан. доктор. дисс. афтореферати. – Тошкент, 2011.–Б.12-15; Мирзаева С.Р. Ўзбек халқ романик достонлари поэтикаси. –Тошкент, Фан. 2004; Шомусаров Ш. Араб фольклори. – Тошкент, 1992. – 86 б.; Шу муаллиф. Араб ва ўзбек фольклори тарихий-қиёсий таҳлили: Филол. фанлари док. дисс. автореф. – Тошкент, 2002; Шу муаллиф. Араб ва ўзбек фольклори тарихий-қиёсий таҳлили. – Тошкент: Фан, 2002; Шу муаллиф. Специфические особенности фольклорных связей тюркских народов Центральной Азии и среднеазиатских арабов // Восток. – М., 2009. – №1. – Б.124-132; Қаюмов О. Қояларга битилган мактуб / Фольклоршунослик. Илмий мақолалар тўплами. – Навоий, 2003. – Б.100-108; Ўша муаллиф. Ўзбек шомон маросимлари фольклори. –Тошкент, Иқтисод-молия нашриёти. 2020. –176 б.

¹⁸ Бобомирзаев Х. Фольклор ва тарбиянинг педагогик асослари. Конимех, 1992.

ulgurdi. Bunda tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantirishda atrof muhitning ta'siri katta ekanligi hech kimga sir emas. Ma'naviy muhit – tarbiya uchun atrof muhit hisoblanadi.

O'zbek xalqining uzoq yillik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, barcha davrlarda jamiyatning rivojiga ham uning tanazzuliga ham ma'naviy muhitning bevosita daxldorligini anglaymiz. Jamiyat a'zolarining dunyoqarashi, fikrlashi, atrofga munosabati jamiyatdagi vaziyatni belgilab beradi. Jamiyatdagi vaziyat esa, o'z navbatida muammolar, taraqqiyot, farovonlik, barqarorlik yoki aksincha to's-to'polonlar, tanazzulga sabab bo'ladi. Jamiyatdagi muayyan vaziyat jamiyat a'zolarini har birining odam va olamga munosabati, dunyoqarashi, fikrlashi zamirida maydonga keladi.

Vaziyat ma'naviyat qobig'ida shakllanadi va ma'naviy muhitni yaratadi. Jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ma'naviy muhitning o'rni beqiyosdir. Taraqqiyotga erishish uchun hamjihatlik, xayrixohlik talab etiladi. Shundagina ma'naviy muhit barqarorligi ta'minlanadi. Ma'naviy muhitning barqarorligini ta'minlash o'z-o'zidan bo'lib qoladigan ish emas. Buning uchun birinchidan, jamiyat a'zolarining muammolarini o'rganish, ularning muammolari yechimiga yordamlashish, har bir mas'ul xodimdan bag'rikenglik, vaziyatni his qilish, muammoga duchor bo'lgan shaxs o'rniga o'zini qo'yib ko'rib qaror qabul qilish, zarur qaror qabul qilishda nuroniylar hayotiy tajribalariga, qonun hujjatlariga tayanish talab etiladi; ikkinchidan jamiyat a'zolarining xulqi bilan chambarchas bog'lanadi.

Muhtaram Prezidentimiz “Bir ziyoli bir mahalla” tamoyilida ish ko'rish taklifini olg'a surdilar. Aslida ma'naviyat targ'ibotini amalga oshirish borasidagi ishlarimiz davlat rahbarining tanbehisiz bajarilishi lozim. Bu borada bizning kamchiliklarimiz nimalardan iborat? –degan savol tug'iladi. Birinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini ta'minlash uchun faqatgina, turli badiiy tadbirlarni amalga oshirish bilan chegaralanib qolayapmiz, ikkinchidan, hisobot topshirish uchun ishlash prinsipi yetakchilik qilmoqda. Masalaga bu xildagi ikki yondashuv sohada biroz oqsoqlanishga olib keldi. Buning natijasini barchamiz yaxshi anglab turibmiz. Ishimizning natijasi yoshlarimiz dunyoqarashida bo'y ko'rsatmoqda. Bugun ma'naviyat targ'iboti, ma'naviy - ma'rifiy ishlar sohasida muayyan ijobiy natijalarga erishish uchun nimalar qilishimiz kerak? Buning uchun kimlar mas'ul? Bu ishlar qaytariqa amalga oshiriladi?

Bizningcha, ma'naviyat mas'uli o'zi targ'ibot ishlari olib boradigan hududni stasionar o'rganishi lozim. U yerdagi aholining yoshi, dunyoqarashi, qiziqishlari, xulqi, yoshlarning tarbiyasi va tarbiya jarayoni borasida to'liq ma'lumotga ega bo'lgach, ma'naviy tadbirlarni amalga oshirish uchun bel bog'lashi talab etiladi. Hozirchi? Ma'naviyat xodimlari o'zlarining rejalari bilan to'satdan biror jamoaga borib tadbir o'tkazadilar. Tabiiyki, tadbir uchun zalni to'ldirish, rasmlarga tushib internetga qo'yish kerak. Zal kimni hisobidan to'ladi? Ta'lim muassasalari o'quvchilari hisobidan, albatta. Shu o'rinda biz kimga ma'naviy ta'sir qilmoqchimiz degan savolni o'zimizga berishimiz lozim. Uyushmagan yoshlar, mehnatkash aholi bilan shunday tadbirlar tashkil etishimiz kerak emasmi?

Joylarda hokimlar ma'naviyat kengashlari rahbari bo'lganligi uchun aksariyat tadbirlar o'quvchilarga tashkil etilmoqda. Bu mazmunan to'g'rimi? O'quvchi ta'lim muassasasida standardagi ma'naviy tarbiyani olayapti. Bu o'rinda ma'naviyat targ'ibotchilari jamiyatning

boshqa qatlami bilan ishlashi kerak emasmi? Demak, ma'naviyat mas'uli o'z faoliyatiga jiddiy e'tibor berishi darkor.

Uning tashkil etadigan ma'naviy tadbirlari albatta maqsadli bo'lishi talab etiladi. Ma'naviyat targ'ibotchisi o'z oldiga maqsad qo'yishi, kimga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatmoqchi, kimni fikrini qaysi tomonga o'zgartirishini oldindan rejalashtirib olishi lozim. Xalqimizda "Miyani tarki ochildi" degan ibora bor. Bu nima degani? Biror bir masalaning mohiyatini teran anglab oldi, degani. Jamiyatdagi kamchilik va muammolarning tub mohiyatida yoki huquqiy savodxonlikning yetishmasligi, yoki axloqsizlik yotadi. Ma'naviyat targ'ibotchisi mana shu ikki illatning hayotimizdan chetlatuvchi, tegishli bilimlar bilan qurollangan shaxs bo'lishi lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish uchun avvalo har bir tashkilotning kalendar tematik rejasini tuzib olish, rejalashtirilgan ishlarni o'z vaqtida amalga oshirishga jiddiy e'tibor qaratish kerak. Ma'naviyat targ'iboti bilan shug'ullanadigan shaxsning rejaviy yo'nalishlari taxminan quyidagilardan iborat bo'lib, har bir yo'nalish tadbirlari muayyan maqsadni ko'zlagan bo'lishi kerak:

1. Uchrashuvlar va xotira kechalari tashkil etish. Bunda jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutgan ibratli shaxslarning hayoti va faoliyatini yoritish, ularning kamtarona turmush tarzi, boshqalarga ibrat bo'ladigan xulqi, ilmiy, badiiy, estetik dunyoqarashi va salohiyati, amalga oshirgan ezgu ishlari xalqona tilda tushunarli, obrazli qilib ommaga yetkazilishi kerak. Masalan, biror adib hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ma'naviy tadbir jarayonida tashkilotchi shunday sahna ko'rinishlariga e'tibor bersinki, mahalladagi oddiy fuqaroning muayyan dardlari aks etgan bo'lsin.

Ma'naviyatchi gapiradigan gaplar, keltiradigan misollar oddiy insonlarning turmush tarzi, kundalik hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lishi shart. Buning uchun hozirgacha amalga oshirilib keladigan ma'naviy tadbirlarimiz manmunan yangilanishi, mantiqan o'zgartirilishi va eng muhimi, har bir ma'naviy tadbirdan muayyan maqsani ko'zlagan bo'lishimiz lozim. Zero, ma'naviyat muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Uchrashuvlar xotira kechalari tashkil etish masalasida yana bir narsaga e'tibor qaratishimiz zarur. Odatda ma'naviy tadbirlarda uchrashuvlar, xotira kechalari faqat shoir va yozuvchilar hayotiga bag'ishlanib qoladi. Biz ma'naviyatni mazmunan xalqqa yaqinlashtirish yo'lidan bormog'imiz lozim.

Uchrashuvlarda olimlar, jamiyatda o'zining halol mehnati bilan ko'pchilikka o'rnak bo'lgan turli kasb egalari – faxriylar kabi ibrat namunasi bo'la oladigan shaxslarni ham xalq e'tiboriga olib chiqishimiz kerak. Bu yo'nalishdagi ishlarimiz yoshlarimizning kimga ergashishi, kimdan ibrat olishi, kelajakda qanday odam bo'lishini ta'minlashi kerak. Mahalladagi hamma yoshlar o'qimishli, ijodkor bo'lavermaydi-ku. Qaysidir o'smir kasb-hunarga qiziqadi, qaysidir adabiy ijodga, qaysidir ilmiy izlanishga. Shunday ekan, uchrashuvlar va xotira yo'nalishi obyektlarini tanlashga xalq orasida oddiy, mehnatkash, halol hunarmandlar, dehqonlar, mexanizatorlardan ibratli odamlarni qidirishimiz va namuna darajasiga ko'tarishimizning yoshlarimiz tarbiyasiga ta'siri samaraliroq bo'ladi deb o'ylaymiz. Shu o'rinda mahallarda azaldan mashhur bo'lgan kasblar (holvafurush, kulolchilik, qayishfurushlik, kosagaronlik, tavoq taroshlik va boshqalar) egalari ularning ota-bobosi

tomonidan shu kasb egallab kelinganligini yoshlar ongiga yetkazish ham ularda milliy g'ururni shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Kitobxonlik va ma'naviy suhbatlar. Bu yo'nalishdagi ishlarni amalga oshiradigan xodim jamoaning xulqi, shuuri, ongidagi kamchiliklarni dastlab tashxislashi va aniqlangan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan oddiy odamlarning tushuna olishi uchun qulay sharoitda, ularning aqliy imkoniyatlariga moslashtirilgan holda suhbatlar, munozaralar, jamoa yoshlari o'rtasida bellashuvlar, "muammo va yechimlar" nomi ostida debat klublari tashkil etishi, oddiy jamoa qiziqadigan adabiy asarlarni tanlab uning syujeti, mohiyatini xalqona tahlil qilish, qahramonlarning harakatlariga odamlarning tavsifini olishga erishishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada biz dastlab kitobga ishi tushmagan kishini unga qiziqishini orttirishimiz kerak. Buning uchun kitob targ'ibotini samarali usullarini izlab topishimiz, masalaga ijodiy yondashmog'imiz kerak.

3. Shaxs muammolari va inson huquqlari borasidagi tadbirlar. Bu boradagi tadbirlar ma'naviyat targ'ibotchisi tomonidan o'rganilayotgan obyekt (ta'lim muassasasi sinfi, mahalla, korxonalar jamoasi)ning muammolarini qonuniy hal etilishi uchun huquqiy tushuntirishlar olib borish, jamoa a'zolari orasidan muammosi mavjud shaxslarning muammolarini o'rganish va bu muammoli vaziyatni qonun doirasida muhokama qilishga qaratilishi lozim. Shu yo'l bilan jamoa a'zolarining huquqiy adabiyotlarga bo'lgan qiziqishi uyg'onadi. Ularning huquqiy savodxonligini oshirishga erishish mumkin.

Ma'naviyat xodimi ko'proq e'tiborini oddiy aholining ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qaratmog'i zarur. Maktab o'quvchisi, yoki oliy ta'lim muassasasi talabasi o'z huquqlarini himoya qila olishi mumkin. Biroq, oddiy odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, o'z faoliyatida o'zining ham o'zganing ham huquqlarini buzmaslikka odatlantirish ko'nikmalarini shakllantirish ma'naviyat xodimining asosiy maqsadi bo'lishi kerak. Mana bugun ziyoli qatlamning jamiyatga xizmati va ta'siri nimalarda ko'rinishi lozim.

To'g'ri, kimdir katta olim, kimdir olamshumul ixtirolar qilayotgandir. Ammo shu odamlarimizning hayot tarzi, yutuqlari, hayot yo'li bilan qiziqayapmizmi? Mahallada, oilada shunday ulug' insonlarning hayoti va xulqini, yutuqlarini ibrat qilib ko'rsatayapmizmi? Bugun hayotimiz mazmuni nimalardan iborat bo'layapti?

Menimcha, aksariyat kishilarning hayoti mazmuni pul topishdan iborat. Shuning uchun pul topish yo'lida har qanday xatti-harakatni amalga oshiraveradi. Natijada muammolar ketidan muammolarning maydonga kelishi kuzatilmoqda. Zero, ma'naviyat ta'lim va tarbiyani bog'lab turuvchi muhim uzvdir. Ta'lim va tarbiya yaxlit holda ma'naviyat qobig'ida kechadigan jarayon. Millatning istiqbolini belgilovchi avlodni tarbiyalash, tarbiyalanuvchilarda millatiga, xalqiga, Vataniga mehr va muhabat, sadoqat hissini shakllantirish globalashib borayotgan bugungi siyosiy vaziyatda o'zbek millatini millat sifatida saqlab qolishning yagona yechimi bo'lib qolmoqda. Millatparvar, Vatanparvar shaxni kamolga yetkazishda milliy o'zlik muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, milliy o'zlik millatimiz, milliy davlatchiligimiz, har birimizning ertangi kunimizni belgilab beruvchi ko'zga ko'rinmas kuch bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim. Yosh avlodni milliy o'zlikni anglash ruhida tarbiyalash kechiktirib bo'lmaydigan masaladir. Negaki, yosh avlod tarbiyasi biz uchun hayot va momot masalasi bo'lib qolaveradi.

Demak, milliy o'zlikni angalashning ijtimoiy zarurati quyidagilarda ko'rinadi:

- siyosiy globallashuv jarayonida dunyo xalqlari orasida millatimizning ma'naviy qiyofasini saqlab qolish, milliy davlatchiligimiz, va xalqimizga boshqa xalqlar iliq munosabatlarini saqlash qolish va ularda hurmat hissini shakllantirishimiz uchun yoshlarimizni milliy o'zlikni anglashga o'rgatishimiz zarur.

- milliy o'zlikni anglash, insonning o'z mavjudligining mohiyati, ma'naviy voqelik, sha'n, qadr-qimmat, obro'-e'tibor, or-nomus orqali namoyon bo'lishini, hayotning ma'no mazmuni, maqsadini tushunib yetish, o'zini anglashdan boshlanadi. Shunday ekan, yosh avlodni milliy o'zlikni anglashga o'rgatishimiz davr talabidir.

- shaxs tomonidan o'zining qaysi sosial guruhga mansubligi hamda shu sosial guruh doirasida ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, maishiy va axloqiy stereotiplarga amal qilinishi, insonda "men kimman", "mening boshqalardan farqim nima?" degan savollar asosida vujudga keladi va bunda inson o'z-o'zini anglash jarayonidagi murakkab yo'lni bosib o'tadi. Dunyoning turli burchaklarida faoliyat ko'satayotgan o'zbek farzandlarini milliy o'zligini saqlab qolishi millatning istiqboli bilan chambarchas bog'liqdir.

- o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Bu ayni paytda mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub negizidan o'rin olmog'i lozim.

Demak, o'zlikni anglash, avvalo har bir insonning shaxsi, alohida "meni" bilan bog'liq. O'zligini anglagan inson ma'naviy yuksalishga erishadi, har qanday sharoitda ezgulik sari harakat qiladi. Milliy g'urur yangi O'zbekiston ta'lim tizimining yangi bosqichga ko'tarishning muhim qirralaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маркарян Э.С. Теория культуры и современная наука анализ. – Москва: Мысль, 1983. – 284 с.
2. Грыневич, Я.І. Беларуска пазаабрадавыя лірычныя песні / Я.І. Грыневич. – Мінск : Беларус. навука, 2018. – 246 с.
3. Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари.–Тошкент, Фан, 1968.
4. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010.
5. Жўраев М. Ой олдида бир юлдуз – Тошкент: Фан, 2001.
6. Жўраев М. Остонаси тиллодан.–Тошкент, 2003.
7. Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан, 2001.
8. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986.
9. Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун-дуолари фольклор жанри сифатида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1992. – 2-сон.
10. Ўраева Д. Кинна айтимларининг поэтикасига доир // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 2-китоб. – Тошкент: Фан, 2010.
11. Эшонқулов Ж.Эпос ва маросим//Миф ва бадий тафаккур.–Тошкент, Фан, 2019.



12. Турдимов Ш. “Гўрўғли” дostonларининг генезиси ва тадрижий боскичлари. Филол.фан. доктор. дисс. афтореферати. –Тошкент, 2011
13. Мирзаева С.Р. Ўзбек халқ романик дostonлари поэтикаси. –Тошкент, Фан. 2004.
14. Бобомирзаев Х. Фольклор ва тарбиянинг педагогик асослари. Конимех, 1992.